

40.3
A-16

**Z.Z.Abdushukurova,
S.Sidikov, S.Q.Zakirova**

TUPROQ GEOGRAFIYASI



Z.Z.Abdushukurova, S.Sidikov, S.Q.Zakirova

TUPROQ GEOGRAFIYASI

Toshkent-2023

Z.Z.Abdushukurova, S.Sidikov, S.Q.Zakirova Tuproq geografiyasi: O'quv
qo'llanma – T., 2021. – 112 b.

UDK: 631.92(075.8)

KBK: 40.3я73

O'quv qo'llanmada tuproqlarni geografik tarqalish omillari, tuproqlarni geografik tarqalishining qonuniyatlari va ilmiy asoslari, O'zbekiston Respublikasi tuproq qoplami, dunyo tuproqlarining geografik tarqalishi, dunyo tuproq qoplami, dunyo yer resurslari va muhofazasi, O'zbekiston yer resurslari va muhofazasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

O'quv qo'llanma 5141000-Tuproqshunoslik va 5410100-Agrokimyo va agrosoilshunoslik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlarni tayyorlashga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

R. Kurvontoev - qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor, Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti Tuproqlar fizikasi va texnologiyasi bo'limining etakchi ilmiy xodimi.

Z.A.Jabbarov - O'zbekiston Milliy universiteti Tuproqshunoslik kafedrasida professori, biologiya fanlari doktori.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 28 dekabrda 676-son buyrug'iga muvofiq 5141000-Tuproqshunoslik va 5410100- Agrokimyo va agrotuproqshunoslik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida nashr etish uchun tavsiya etilgan.


ISBN: 978-9943-6915-5-1

«Yangi chirchiq prints» напшриѐти, Тошкент, 2023 й.

So'z boshi

Mazkur "Tuproq geografiyasi" fanidan o'quv qo'llanma 5141000-Tuproqshunoslik va 5410100-Agrokimyo va agrosoilshunoslik ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, Biologiya fakultetining Tuproqshunoslik kafedrasida ko'p yillar o'qitilib kelinayotgan fanning o'quv materiallari asosida yaratilgan. "Tuproq geografiyasi" fani o'quv qo'llanmasini yaratishda etakchi xorijiy OTM lar olimlaridan A.Jones, P.Panagos, The state of soil in Europe (European Union, 2012), Paul Driessen, Wageningen Agricultural University., Lecture Notes on the Major Soils of the World (2001), Stroganova M.N. and Urusevskaya I.S. Geography And Structure Of The World Soil Cover (Pedosphere), Gergely Tóth, Luca Montanarella, Vladimir Stolbovov, Ferenc Máté, Katalin Bódis, Arwyn Jones, Panos Panagos and Mare Van Liedekerke. Soils of the European Union (2008), Status of the World's Soil Resources. Chapter 10 Regional Assessment of Soil Change in Asia. FAO, (2015), Kyuma, Kazutake; Kawaguchi, Keizaburo. Major Soils of Southeast Asia and the Classification of Soils under Rice Cultivation: Paddy Soils. Kyoto University, James G. Bockheim. Soil Geography of the USA. USA. (2014), World reference base for soil resources (2006) FAO adabiyotlardan foylalanildi.

O'quv qo'llanma "Tuproq geografiyasi" fani predmeti, maqsadi va vazifalari; fanning tadqiqot uslublari va asosiy bo'limlari; O'zbekiston va dunyo xilma-xil tuproqlaridan to'g'ri va oqilona foydalanish; dunyo xalqlarini er resurslari bilan ta'minlash darajasi, kurrimiz tuproqlarini ekologik holati, inson ta'sirida cho'llarning paydo bo'lishi, o'rmonzorlarning taqsimlanishi va ulardan foydalanish hamda ularni muammolari; tuproqshunoslik va ekologik muammolarini echish haqidagi bilimlarga ega bo'lish kabi masalalarni qamraydi.



Ushbu o'quv qo'llahma 7 ta bobdan iborat bo'lib, ular fanning namunaviy va ishchi o'quv dasturlari, modulni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar materiallariga mos tarzda shakllantirilgan.

1-bob. Kirish

Reja

1. "Tuproq geografiyasi" fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, mazmuni va fan sifatida o'rganishning ahamiyati.
2. Fanning rivojlanish tarixi.
3. Tuproqlarni geografik tarqalishining asosiy jihatlari.

"Tuproq geografiyasi" fani predmeti, maqsadi va vazifalari; fanning tadqiqot uslublari va asosiy bo'limlari; dunyo xilma-xil tuproqlaridan to'g'ri va barakali foydalanish; dunyo xalqlarini er resurslari bilan ta'minlash darajasi, kurrimiz tuproqlarini ekologik holati, inson ta'sirida cho'llarning paydo bo'lishi, o'rmonzorlarning taqsimlanishi va ulardan foydalanish hamda ularni muammolari; tuproqshunoslik va ekologik muammolarini echishdagi hamda tuproqshunos mutaxassis tayyorlashdagi o'rni kabi masalalarni qamraydi.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga dunyo va O'zbekiston tuproqlari haqida to'g'ri va to'liq tushuncha berish, ularning tabiiy sharoitlari va tuproq hosil qiluvchi omillari, iqlimi, o'simlik va jonivorlari, inson faoliyati haqida hozirgi zamon ta'limotini berishdan iborat. Buning uchun quyidagi vazifalar bajariladi: talabalarni dunyoda tarqalgan tuproq tiplari va ularning xossa xususiyatlari kabilar bilan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tanishtirish.

O'zbekiston, Evropa, Osiyo, Afrika, Avstraliya, Amerika tuproq xillarini; dehqonchilikda foydalaniladigan erlar; dehqonchilikning tabiiy sharoitga ta'siri; yaylov erlari; inson ta'sirida cho'llarning paydo bo'lishi; o'rmon erlari va ularning taqsimlanishi; tuproqlarining tarqalishi, iqlimi, rel'efi, o'simliklari materiallaridan amalda foydalanish haqida ilmiy bilimlar berishdan iborat.

Tuproq o'zida iqlim, o'simlik, tirik organizmlar, inson va topografik sharoitlarning ma'lum vaqt oralig'ida tuproq ona jinsiga ta'sir qilishini aks

ettiruvchi o'z xossasiga ega uch o'lchamli tana sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu 5 ta tuproq hosil qiluvchi omillarning har birining tavsifi va muhimligi vaqt va makonda o'zgaradi. Ayrim istisno sifatida tuproqlar hozirda o'zgarish jarayonida bo'lib, tuproq profili differentsiatsiyasi yoki ona jinsining o'zgarishi belgilari tuproq hosil bo'lish yoki pedogenez jarayonini aks ettiradi.

O'simlik va hayvonot dunyosi vakillari kabi aniq belgilanuvchi alohida ob'ektlardan farqli ravishda tuproq qoplami dunyosi o'zining beto'xtov jarayonini namoyon etadi. Uning tarkibiy qismlari vaqt yoki makon ketma-ketligida shakllanadi. Tuproqshunoslikning birinchi kunlaridayoq tuproq tasnifi uning genezisiga asoslana boshlagandir. Tuproqlarning ko'plab an'anaviy nomlari tuproqlarning hosil qiluvchi omillar pedogenezisining u yoki bu darajadagi ustunligi yoki tarixiga asoslanadi, masalan, cho'l tuproqlari (iqlim ustunlik qiluvchi omil hisoblanadi), voha tuproqlari (inson omili), o'tloqi tuproqlar (o'simlik qoplami), tog' tuproqlari (rel'ef) yoki vulkan kulli tuproqlar (ona jins). Taqqoslash sifatida tuproq nomi ko'rinib turgan omil nomi bilan ataladi, masalan, qo'ng'ir tuproq (rangi), ishqoriy tuproq (kimyoviy tavsifi), gidromorf tuproqlar (fizik tavsifi), qumli tuproqlar (tuzulishi) va litosollar (chuqurligi).

Tuproq to'g'risidagi nisbatan aniq ma'lumotlar, faqat o'tgan asrning o'ninchi yillarida rus olimlari tomonidan berilgan. Masalan, 1908-1910 yillarda birinchi tuproq izlanuvchilaridan K.D.Glinka, N.A.Dimo, S.S.Neustruev, I.P.Gerasimov va boshqalar tomonidan tekislik va tog' tuproqlari ajratilib, tekislik qismida bo'z, qo'ng'ir va qora tuproqlar, tog'larda esa ularning analogi tarqalgan deb tasniflashadi.

Shu yo'llar bilan to'plangan ma'lumotlar va olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida Dimo, Neustruev va Gerasimovlar bo'z tuproqlarni alohida zonal tuproqlar deb ajratishgan. Keyinchalik N.A.Dimo (20-30 yillarda) bir qancha ekspeditsiyalarda qatnashib to'plagan tajribalariga asoslanib, O'rta Osiyo

tuproqlarini sahro tuproq hosil bo'lish jarayoni deb belgilaydi va ularni oddiy sahro bo'z tuproqlari, sahro sariq tuproqlari va sahro gipslangan bo'z tuproqlarga bo'ladi. Tog' tuproqlariga esa: yarim sahro yoki sahro-cho'l mintaqasining tog' va tog' oldi och tusli bo'z, quruq cho'l zonasining tog'li qo'ng'ir tuproqlari va tog'li qora tuproqlarga o'xshash tuproqlarni ajratadi. Undan keyin E.N.Ivanova, I.P.Gerasimov, Tarasovlar Amudaryo quyi oqimi sug'oriladigan tuproqlari va ularni bo'linishi to'g'risida bir qancha ilmiy asarlar yozishgan (1930-1932). 1938 yilda E.P.Korovin va A.N. Rozonovlarning "O'rta Osiyo tuproq va o'simlik qoplami ishlab chiqarish kuchi" nomli ilmiy ishi chop etiladi, so'ngra B.V.Gorbunov; N.V.Kimberg va S.A.Shuvalovlarning 3 tomli "Pochvy Uzbekskoy SSR" nomli monografiyasi 1945 yilda chop qilindi.

Ko'p yillar davomida yuzaga kelgan ko'plab tuproq tasnifi tuzilmalari tuproq paydo bo'lishi to'g'risidagi ko'plab fikrlarni kontseptsiya sifatida saqlab keldi va tasnifda foydalaniladigan qarama-qarshi tamoyillarni aks ettirib keldi. 1950 yillarda mo'tadil va tropik iqlimli hududlarda tuproq tadqiqotlari ko'plab olib borilayotgan vaqtda xalqaro aloqalar keskin kuchaydi. Shu vaqtlarda to'plangan tajriba va olimlar o'rtasidagi bilim almashinish dunyoda tuproq qoplamiga bo'lgan qiziqishni qayta tug'dirdi. Tuproqning butun ko'rsatkichlarini qamrab oluvchi tasnif ishlab chiqildi.

1974 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va Qishloq xo'jalik tashkiloti (FAO) Dunyo tuproq xaritasini chop etdi. Ushbu xaritani tuzish butun dunyo tuproqlari to'g'risida ma'lumot yig'ishni talab qilganligi bois qiyin kechgan. Boshlang'ich tuproq legendasi faqatgina asosiy tuproq guruhlarini aks ettirgan. 1990 yilda qayta chop etilgan tuproq xaritasi chop etildi va unda tuproq tipchalari va boshqa guruhlarini ham qamrab olindi. Tuproq tipchalari aniq ko'rsatilmagan, lekin ularni aniqlash va tavsiflash bo'yicha tavsifalar keltirilgan.